AXBOROTLAShGAN JAMIYaT: MOHIYaTI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Badalova Madina Abosjonovna
FarDU mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21469940

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat fenomenining shakllanish tarixiy- falsafiy asoslari va uning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Postindustrial jamiyat, raqamli sivilizatsiya, tarmoq jamiyati, mediamadaniyat kabi tushunchalar qiyosiy o‘rganilib, bilim va axborotning asosiy resurs sifatidagi o‘rni ochib beriladi. Axborotlashgan jamiyatning ijobiy va salbiy aksiologik oqibatlari haqida xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Axborotlashgan jamiyat, postindustrial davr, raqamli sivilizatsiya, tarmoq jamiyati, mediamadaniyat, globallashuv, virtuallashuv, madaniy transformatsiya, virtual identichlik, ommaviy madaniyat, aksiologiya, raqamli transformatsiya.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, internet va global kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi insoniyat sivilizatsiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Prezident Sh.M.Mirziyoev Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqida raqamli transformatsiyaning tezlashishi, raqamli iqtisodiyotga o‘tish, sun’iy intellekt va ilg‘or IT qarorlarni joriy etish mamlakatlar raqobatbardoshligida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlab, “ShHT kelajak texnologiyalari” dasturini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi. Bu fikrlar axborotlashgan jamiyat tendensiyasining siyosiy- iqtisodiy darajadagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

NATIJALAR

Raqamli sivilizatsiya va mediamadaniyat

Raqamli sivilizatsiya tushunchasi axborot texnologiyalari, internet, raqamli media va sun’iy intellekt asosida shakllanayotgan yangi ijtimoiy- madaniy muhitni ifoda etadi. M.Maklyuen “media - bu xabar” degan mashhur g‘oyasi orqali ommaviy axborot vositalarining inson idroki va madaniyatiga ta’sirini ta’riflagan; N.Negroponte «Being Digital» asarida raqamlashuv insoniyat hayotining barcha jabhalarini qayta shakllantirayotganini ko‘rsatgan; L.Floridi axborot falsafasi orqali “infosfera” konsepsiyasini rivojlantirgan, ya’ni axborot muhiti insonning ong va ijtimoiy tajribasini tashkil etuvchi asosiy maydonga aylanadi.

Raqamli sivilizatsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri – virtuallashuv. Hayotning ko‘plab sohalari – ish, ta’lim, madaniyat, muloqot – virtual makonda amalga oshmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar inson muloqotining asosiy platformasiga aylanib, “virtual identichlik” fenomeni paydo bo‘ladi. Inson o‘zini avatar, profil va onlayn obrazlar orqali ifoda etadi. J.Bodriyyar “simulyarlar va simulyatsiya” nazariyasida mediamadaniyatda reallik o‘rnini belgilar, obrazlar va simulyakrlar egallab, “giperreallik” yuzaga kelishi haqida yozgan.

Vaqt va makonning nisbiylashuvi raqamli sivilizatsiyaning yana bir o‘ziga xos jihatidir: onlayn translyatsiyalar, global tarmoqlar orqali madaniy jarayonlar real vaqtda butun dunyoda namoyon bo‘ladi. Bu global madaniy almashinuvni tezlashtirib, turli madaniyatlar o‘rtasida muloqot va integratsiyani kuchaytiradi, biroq shu bilan birga madaniy assimilyatsiya xavfini ham oshiradi.

Axborotlashgan jamiyatning ijobiy imkoniyatlari

Axborotlashgan jamiyatning ijobiy qirralaridan biri - global aloqa va integratsiya imkoniyatlarining kengayishi. Turli madaniyatlar o‘rtasida tezkor muloqot, tajriba va bilimlar almashinuvi, xalqaro hamkorlik loyihalari faollashadi. Bu jarayon, ayniqsa, ilm- fan, texnologiya, ta’lim va madaniyat sohalarida innovatsiyalarning tez tarqalishiga xizmat qiladi.

Bilim va innovatsiyalarning keng tarqalishi. sifrlashgan kitobxonlik, onlayn kurslar, masofaviy ta’lim platformalari orqali axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. Bu,

o‘z navbatida, intellektual saloxiyatni oshirish, ta’limda teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy mobillikni ta’minlashda muhim omildir.

Madaniy merosni saqlash va raqamlashtirish. Tarixiy yodgorliklar, arxiv hujjatlari, klassik adabiyot va san’at asarlarini raqamli formatda saqlash, virtual muzeylar va onlayn ekspozitsiyalar orqali ularni keng jamoatchilikka taqdim etish madaniy merosni asrashda katta ahamiyatga ega. Bu jarayon milliy madaniyatni global auditoriyaga chiqarish imkoniyatini ham yaratadi.

Demokratik imkoniyatlar kengayishi. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platforma orqali fuqarolar fikr bildirish, jamoaviy tashabbuslar, petitsiyalar, ochiq muhokamalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ommaviy ishtirok, fikrlar xilma-xilligi va fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Axborotlashgan jamiyatning salbiy jihatlari va xavflari

Shu bilan birga, axborotlashgan jamiyat bir qator salbiy aksiologik oqibatlar va xavflarni ham keltirib chiqaradi.

Birinchidan, madaniy assimilyatsiya xavfi. Ommaviy madaniyatning global gegemoniyasi mahalliy madaniyatlarning zaiflashishi, milliy simvollar, urf-odatlar va tilning soyada qolishiga olib kelishi mumkin. “Global trendlar”ga moslashish istagi milliy qadriyatlardan voz kechishga nisbatan konformizmni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, virtual identichlik inqirozi. Insonning shaxsiyligi virtual muhitda layklar, podpischiklar va onlayn maqbullikka bog‘langan holda qayta konstrutsiyalanadi. Bu holatda real shaxs va virtual obraz o‘rtasidagi farq kattalashib, psixologik disbalans, ijtimoiy yolg‘izlik va “o‘zini yo‘qotish” holatlari paydo bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, axborotning “sof emasligi”. Yolg‘on axborot, propaganda, manipulyatsiya, feyk yangiliklar va virtual tahdidlar madaniy barqarorlikka jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Internetning cheksiz maydonida axborotni tekshirish, manbaga ishonch, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari bo‘lmasa, jamiyat irodasini manipulyatsiya qilish osonlashadi.

To‘rtinchidan, ommaviy madaniy konformizm. Global trendlar, virusli kontent va ommaviy chellenjlar shaxsiy va milliy madaniy qadriyatlarning soyada qolishiga olib kelib, inson o‘z fikrini jamoa fikriga mutlaq moslashtirishga moyil bo‘ladi. Bu individual ijodkorlik, mustaqil fikrlash va milliy aksiologiyani zaiflashtiradi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, axborotlashgan jamiyatda madaniy transformatsiya qarama-qarshi tendensiyalarga ega jarayondir. Bir tomondan, umuminsoniy qadriyatlar - inson huquqlari, demokratiya, ochiqlik, hamkorlik - global miqyosda tarqaladi, bu integratsiya va hamjihatlikka xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, milliy madaniyatlarning zaiflashishi, lokal identichlikning yo‘qolishi xavfi kuchayadi. Shu bois raqamli jamiyatda “madaniy xilma-xillik” va “ommaviy madaniy gegemoniya” o‘rtasida muvozanatni topish asosiy falsafiy masalaga aylanadi. Milliy madaniyatni yopiq tizim sifatida saqlash ham, uni cheksiz global oqimga qo‘yib yuborish ham ma’qul emas; aksincha, milliy qadriyatlarni raqamli muhitga adaptatsiya qilish, ularni umuminsoniy madaniy jarayonlar bilan dialogda rivojlantirish zarur.

MUHOKAMA

Axborotlashgan jamiyat tushunchasining nazariy asoslari

Axborotlashgan jamiyat fenomeni XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab D.Bell, M.Kastells, E.Giddens, A.Tofler kabi mutafakkirlar asarlarida nazariy jihatdan asoslandi. Bellning «Postindustrial jamiyatning kelishi» asarida industrial davrdan keyin bilim va axborot ustuvorlik qilgan yangi bosqich - postindustrial jamiyat konsepsiyasi ilgari suriladi. U yerda ishlab chiqarishning asosiy resursi moddiy emas, intellektual va axborotiy resurslar deb qaraladi. M.Kastells «Axborot asri» triologiyasida zamonaviy jamiyatni «tarmoq jamiyati» sifatida talqin qiladi va internet, kommunikatsiya vositalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. E.Giddens, A.Tofler, J.Xabermas, J.Bodriyyar, L.Floridi, N.Negroponte, M.Maklyuen kabi mualliflar ham axborot jamiyati, mediamadaniyat va raqamli sivilizatsiyaning turli qirralarini yoritib berganlar.

Axborot jamiyati atamasi XX asrning ikkinchi yarmida, industrial iqtisodiyotdan keyin, xizmatlar sohasi va bilim iqtisodiyoti ustuvorlikka ega bo‘lgan sharoitda shakllandi. Bellga ko‘ra, postindustrial jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy vositasi - axborot va bilim; ya’ni intellektual kapital iqtisodiy rivojlanishni belgilovchi bosh omilga aylanadi. Bu jamiyatda ilmiy- texnik innovatsiyalar, bilim sohasi va analitik xizmatlar ko‘lami kengayib, ijtimoiy tuzum yangi strukturaga ega bo‘ladi.

M.Kastells axborot asrini «tarmoq jamiyati» deb ataydi. Unga ko‘ra, global tarmoqlar, kompyuter kommunikatsiyasi va internet tufayli iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar tarmoqlar orqali boshqariladi, axborot tarqalishi tarmoqlar dinamikasiga bog‘lanib qoladi. Tarmoq jamiyatida jismoniy makon va vaqt cheklovlari nisbiylashadi, “qisqargan dunyo” fenomeni shakllanadi.

E.Giddens zamonaviylik oqibatlarini tahlil qilar ekan, modern jamiyatda refleksivlik, xavflar va globallashuvning kuchayishi, insonning o‘z ijtimoiy muhitiga munosabatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Z.Bauman «Suyuq modern» g‘oyasi orqali zamonaviy jamiyatda barqaror strukturalar yemirilib, munosabatlar, identichlik va institutsiyalar “suyuq”, o‘zgaruvchan holatga kelganini ta’kidlaydi. A.Appaduray, R.Robertson globallashuvni madaniy o‘lchamda talqin qilib, madaniy global maydonchalar, global madaniy almashinuv, diaspora va lokal- global o‘zaro ta’sir masalalarini ko‘targan.

XULOSA

Axborotlashgan jamiyat insoniyatning ma’naviy- madaniy rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Bilim va axborot asosiy resursga aylanib, postindustrial jamiyat modeli shakllandi; tarmoq jamiyati, raqamli sivilizatsiya, mediamadaniyat fenomenlari jamiyat strukturasi, inson tafakkuri va madaniy jarayonlarni chuqur o‘zgartirdi. Prezident Sh.M.Mirziyoev ta’kidlagan raqamli transformatsiya g‘oyalari ushbu tendensiyalarni milliy rivojlanish strategiyasi bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Axborotlashgan jamiyat, bir tomondan, global aloqa, bilim tarqalishi, madaniy merosni raqamlashtirish va demokratik ishtirok imkoniyatlarini kengaytiradi; ikkinchi tomondan, madaniy assimilyatsiya, virtual identichlik inqirozi, ommaviy madaniy konformizm va axborot manipulyatsiyasi kabi xavflarni kuchaytiradi. Shu sababli raqamli jamiyatda madaniy barqarorlikni ta’minlash uchun milliy qadriyatlarni asrab- avaylash, ularni raqamli muhitga uyg‘unlashtirish, mediasavodxonlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni tarbiyalash strategik vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida axborotlashgan jamiyat konsepsiyasini amalga oshirishda milliy madaniyatni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda, umuminsoniy qadriyatlar bilan dialogda rivojlantirish zarur. Milliy aksiologik yadroni saqlab qolish va raqamli sivilizatsiya sharoitida uni boyitish, jamiyatning ma’naviy barqarorligi va uzluksiz taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. – Elekron resurs. – Rejim dostupa: https://president.uz/uz/lists/view/7372 (murojaat sanasi: 16.07.2026).
2. Bell D. The Coming of Post- Industrial Society. – New York: Basic Books, 1973. – xiii, 507 p.
3. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. Vol. 1: The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996. – 454 p.
4. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Cambridge: Polity Press, 1991. – 188 p.
5. Toffler A. The Third Wave. – New York: William Morrow and Company, 1980. – 544 p.
6. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1–2. – Boston: Beacon Press, 1984–1987.
7. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.